

Date: 7th July-2026

SOHIBQIRON DIPLOMATIYASI: G'ARB Va SHARQNI BOG'LAGAN KO'PRIK.

Qo'ilyeva Dilshoda Zokir qizi

Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti

Tarix Fakulteti Tarix yo'nalishi 102-guruh talabasi

(+998777137242)

(dilshodaqoyliyeva4@gmail.com)

Ilmiy Rahbar: **Tayronov Yoqubjon**

Annotatsiya: Amir Temur va Temuriylar davri Vatanimiz xalqlarining hayotiy taqdirida, ularning ijtimoiy taraqqiyotning yuksak marralariga ko'tarilib borishlari davomida o'chmas iz qoldirgan alohida bir tarixiy bosqich bo'ldi. Mazkur maqolada Amir Temur saltanatining tashqi siyosati va xalqaro maydondagi diplomatik aloqalari tahlil qilinadi. Bundan tashqari Sohibqironning Yevropa hukmdorlari, Xitoy va qo'shni davlatlar bilan olib borgan elchilik munosabatlarini tarixiy manbalar asosida yoritilgan. Maqolada diplomatik yozishmalar, elchilarning qabul qilish marosimlari va osha davr xalqaro huquq normalarining shakllanishi masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Tayanch so'zlar: Amir Temur, diplomatiya, Ruy Gonzales de Klavixo, tashqi siyosat, tarixiy xatlar.

Аннотация: В данной статье анализируются дипломатические отношения и внешняя политика государства Амира Темура. Автор на основе исторических источников освещает посольские связи Сахибкирана с европейскими монархами, Китаем и соседними государствами. Особое внимание уделяется дипломатической переписке, протоколам приема послов и формированию норм международного права того времени. В результате исследования сделаны выводы о значении дипломатии Темуридов для современности.

Ключевые слова: Амир Темура, дипломатия, Руи Гонсалес де Клавихо, внешняя политика, исторические письма.

Abstract: This article analyzes the diplomatic relations and foreign policy of Amir Temur's empire. Based on historical sources, the author highlights the ambassadorial ties of Temur with European monarchs, China, and neighboring states. Special attention is paid to diplomatic correspondence, protocols for receiving ambassadors, and the formation of international law standards of that era. The study concludes with observations on the significance of Timurid diplomacy in the modern context.

Keywords: Amir Temur, diplomacy, Ruy Gonzalez de Clavijo, foreign policy, historical letters.

Kirish.

Tarix sahnasida shunday buyuk siymolar borki, ularning faoliyati nafaqat harbiy g'alabalar, balki yuksak siyosiy tafakkur va diplomatik mahorat bilan boyigan. Ana shunday shaxslardan biri – buyuk davlat arbobi va mohir sarkarda Amir Temurdir. XIV asr oxiri va XV asr boshlarida buyuk bobomiz asos solgan qudratli saltanat nafaqat Markaziy



Date: 7th July-2026



Osiyo, balki butun dunyo geosiyosiy manzarasini tubdan o'zgartirdi. Amir Temur davri diplomatiyasi o'zining ko'lamdorligi va strategik teranligi bilan ajralib turadi. Sohibqiron o'z tashqi siyosatida "Qilich yetmagan joyni qalam va so'z bilan zabt etish" tamoyiliga tayanib, Sharq va G'arb o'rtasida o'ziga xos oltin ko'prik vazifasini o'tadi. Buyuk bobomiz davrida Movarounnahr jahon siyosatining markaziga aylandi, Samarqand esa dunyoning turli burchaklaridan kelgan elchilarni qabul qiladigan nufuzli diplomatik qarorgohga aylandi. Amir Temurning Fransiya qiroli Karl VI, Angliya qiroli Genrix IV, Kastiliya hukmdori Enriko III va Vizantiya imperatorlari bilan olib borgan yozishmalari, shuningdek, Xitoy va Hindiston kabi yirik davlatlar bilan o'rnatgan aloqalari o'sha davr xalqaro munosabatlarining eng yorqin namunalari hisoblanadi. Bu aloqalar faqatgina siyosiy ittifoq tuzish uchun amalga oshirilmagan. Balki, Buyuk Ipak yo'lida xavfsiz savdo-sotiqni ta'minlash, madaniy almashinuvni yo'lga qo'yish va dunyo xalqlari o'rtasida o'zaro ishonch ruhini shakllantirishga xizmat qildi.

Amir Temurning diplomatik faoliyati va tashqi siyosati asrlar davomida nafaqat o'zbek tarixshunosligi, balki jahon sharqshunosligi va ovrupashunosligining ham diqqat markazida bo'lib kelgan. Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'biri bilan aytganda, "Milliy davlatchiligimiz, g'urur-iftixorimiz timsoli bo'lgan bu ulug' zotning xalqimiz, Vatanimiz oldidagi tarixiy xizmatlarini baholashning o'zi qiyin. Mustaqillik yillarida buyuk ajdodimizning xotirasini tiklash borasida qanday katta ishlar amalga oshirilganini barchangiz albatta yaxshi bilasiz".

XV asrda Sohibqiron Amir Temur bobomiz asos solgan va uning munosib avlodlari davom ettirgan muhtasham saltanat, yurtimizda ikkinchi Uyg'onish, ya'ni ikkinchi Renessans davrini boshlab berdi. Amir Temurning "Davlat qonunlar asosida qurilmas ekan, unday saltanatning shukhi, qudrati va tarkibi yo'qoladi", degan fikrlar bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Asosiy Qism.

Amir Temur va uning avlodlari tashqi siyosatida Buyuk Ipak yo'li bo'ylab savdo aloqalarini tiklash va xalqaro diplomatiyani rivojlantirish markaziy o'rinni egallagan. XIV asr oxiriga kelib, G'arb savdogarlari uchun Markaziy Osiyo bozorlariga yo'l ochildi. Bunga sabab, Eron va Iroqda mo'g'ul Xulokular sulolasining qulashi hamda Oltin O'rdadagi tartibsizliklar natijasida eski savdo yo'llarining xavfli bo'lib qolganligi edi. Shu bilan birga Usmonli imperiyasining yuksalishi G'arbning Sharqqa boradigan quruqlikdagi yo'llarini yopib qo'ydi. Bu esa Yevropa hukmdorlarini, jumladan Vizantiya imperatori Manuel II Paleologni najot izlab Amir Temur bilan ittifoq tuzishga undadi.

Amir Temur va uning vorislari tashqi siyosatda faqat harbiy kuchga emas, balki o'zlarining yuksak darajadagi diplomatik mahoratiga ham ega edi va ular mana shularga tayanganlar. Sohibqironning G'arbiy Yevropa davlatlari, xususan, Kastiliya, Fransiya, Angliya va Genuya hamda Venetsiya kabi respublikalar bilan o'rnatgan aloqalari o'zaro manfaatli harbiy-siyosiy ittifoq xarakteriga ega bo'lgan. 1400-yilning avgust oyida Anatoliyaning Ming-ko'l (Sivas yaqinida) mintaqasida Amir Temur va G'arbiy Yevropa elchilari o'rtasida bo'lib o'tgan tarixiy uchrashuv bu aloqalarga yaqqol misol bo'la oladi. Ushbu uchrashuvda har ikkala tomonlar Usmonli sultoni Boyazid Yildirimga qarshi

Date: 7th July-2026



kurashda o'zaro harakatlarni muvofiqlashtirish, xususan, Amir Temurning quruqlikdagi qo'shiniga Yevropa davlatlarining dengizdagi harbiy floti yordam berishi masalalarini muhokama qildilar. Rim papasi va arxiyepiskop Ion boshchiligidagi missiyalar, shuningdek Kastiliya qiroli Enriko III tomonidan yuborilgan Ruy Gonsales de Klavixo boshchiligidagi elchiliklar Amir Temur saroyida doimo yuksak ehtirom bilan qabul qilingan. Elchilarning Movarounnahrqa qilgan safarlari o'sha davr ijtimoiy-siyosiy aloqalarning rivojlanganligini ko'rsatadi. Klavixoning kundaliklarida yozilishicha, elchilar Kaspiy dengizining janubiy qirg'oqlari, Elbrus tog' tizmalari va Xuroson orqali o'tib, Termiz darvozasi orqali imperiya hududiga kirib kelganlar. Saltanat hududida "yom" deb ataluvchi pochta-alloqa tizimi shunchalik mukammal ishlaganki, elchilar har kuni maxsus bekatlarda yangi otlarga ega bo'lishgan. Bundan tashqari ular xavfsiz dam olish maskanlari bilan ham ta'minlanganlar. Ayniqsa, Termizdagi qat'iy chegara nazorati o'lkamizga kelgan elchilarni hayratga solgan. Chunki, bu yerda har bir kiruvchi va chiquvchi shaxs qattiq tekshiruvdan o'tkazilgan. Bu esa o'z navbatida davlat xavfsizligi va bojxona tizimi eng yuqori darajada ekanligidan dalolat bergan.

Amir Temur va uning elchilik aloqalari haqida ham bir necha hikoyalar mavjud bo'lib, xozir ana shunday hikoyalardan birini qisqacha taqdim etaman. Bu hikoya Amir Temurning yevropalik «o'g'li» (Kastiliya elchiligi tarixi) deb nomlanadi. Qani kettik!

1402-yilning bahorida Kastiliya (Ispaniya) qiroli Henri III tashabbusi bilan Amir Temur huzuriga elchilar jo'natiladi. Elchilar orasida mard va quvritsar Hernan Sanches de Palasuelas ham bor edi. Elchilar Anqara jangida Boyazid qo'shinlarining tor-mor etilishiga va Sohibqironning g'alabasiga shaxsan guvoh bo'lishadi. Amir Temur g'olibona kelib, ispan elchilarini katta hurmat bilan kutib oladi. Sohibqironning adolati va ulug'vorligidan hayratga tushgan ritsar Hernan erkali bilan undan shamshir so'raydi. Uning istagi darhol bajo keltiriladi. So'ngra u o'z ismiga Amir Temurning ismini qo'shib olishga ijozat so'raydi. Bu iltimos ham hech bir istisnosiz qondiriladi. Ishonchli manbalarda qayd etilishicha Amir Temur g'alati ritsarning samimiyligi va quvligidan ta'sirlanib unga turklardan olingan avliyo Mikoilning ajoyib haykalchasini ham sovg'a qiladi. Uzoq sayohatdan qaytgan Hernan uni Arevalo yaqinidagi cherkovga hadya qilgan. Shunisi qiziqarliki, uzoq yillar mobaynida arevalolik dehqonlar bu haykalcha to'risida mag'rurlanib so'zlab yurganlar hamda bu nodir hadyani „Amir Temur dengiz ortidagi o'lkalardan“ olib kelgan deya bot-bot eslab turganlar.

Diplomatik aloqalarni mustahkamlash maqsadida Amir Temur ham Kastiliyaga o'z elchilarini (Payo Gomes va Muhammad al-Keshiy boshchiligida) yo'llaydi. Ular bilan birga Boyazid haramidagi uch nasroniy asira ayol ham qiroli Henri III huzuriga sovg'a sifatida yuboriladi. Sharqona karvon va asiralar, ayniqsa, latofatli Anjelina de Gres butun Yevropada shov-shuvga sabab bo'ladi, hatto shoirlar ularga atab she'rlar bitadi. Qiroli Henri III keyinchalik bu ayollarni munosib ravishda turmushga berib, sep ajratadi.

Amir Temurga bo'lgan cheksiz hurmati sababli ispan ritsari Hernan umrining oxirigacha Sohibqiron nomi bilan faxrlanib yashaydi. Bugungi kunda Ispaniyaning Arevalo shahri yaqinidagi Rapariyegos cherkovida joylashgan uning qabr toshiga quyidagi so'zlar bitilgan:

Date: 7th July-2026

«Bu yerda qirol Henri III saroyining a'yonlari va uning Amir Temur huzuridagi elchisi, marhamatli ritsar Hernan Sanches de Palasuelas Tamerlan dafn etilgan».

Amir Temur davrining noyob ko'chma arxitekturasi bu Kanigil mavzesi hisoblanadi. 1404-yil kuzida kelgan ispan elchisi Klavixio tomonidan Kanigilda tashkil etilgan bayram jarayonlari xolis tasvirlangan. Kanigil bu Samarqandning shimoli-sharqiy chekkasidagi ulkan maydon bo'lib, bu yerda bayramlar uchun qat'iy va o'ziga xos tuzilishga ega bayramona shaharcha yaratilgan edi. Ko'rinishidan, shaharning tuzilishi oldindan ishlab chiqilgan va Amir Temur tomonidan tasdiqlangan. Bu yerga tashrif buyurgan Klavixio quyidagi ma'lumotlarni ham berib o'tgan. Me'moriy elementlarning joylashuvi qat'iy tartibga solingan: hukmdorning o'rdasi ya'ni qarorgohi kompozitsiyaning markazida bo'lib, uning o'g'illari va xotinlarining pavilonlari yonida, undan keyin vazirlar, harbiy qo'mondonlar va hukmdorning ishonchli vakillarining chodirlari joylashgan edi deb yozadi Klavixio. Bundan tashqari savdo va ommaviy bayramlar uchun alohida joylar ajratilgan edi. Shuningdek, Kanigilga tashrif buyurgan Ispaniya elchilari "ko'plab chiroyli chodirlarni ko'rishdi, ularning aksariyati daryo bo'yida joylashgan edi. Ularga qarash juda chiroyli edi va bir-biriga yaqin turishardi. Elchilar amaldorlar tomonidan turli xil narsalar sotiladigan ko'chalar bo'ylab olib borildi.

Mashhur arab tarixchisi **Ibn Arabshohning** yozishicha Samarqand atrofida go'zal shahar saroylari va bog'lari qurilgan ekan. Ularga misol qilib, Bustoni Eram, Zinatu-Dune, Jannatul-Fardovs, Bustonush-shimal, Jannatul-Ulye va boshqalarni keltirishimiz mumkin. Bir so'z bilan aytganda Samarqanddagi elchilarni qabul qilish jarayoni o'zining dabdabasi va mantiqiy aniqligi bilan ajralib turadi. Amir Temur elchilarni odatda shahar tashqarisidagi "Dilkusha", "Bog'i Nav" yoki "Bog'i Chinor" kabi muhtasham bog'-saroylarda qabul qilgan.

Sharqiy yo'nalishda, xususan Xitoydagi Ming imperiyasi bilan munosabatlar to'g'risida bir nechta tadqiqotchilar o'z ma'lumotlarini berib o'tishgan. Ulardan birinchisi nemis tadqiqotchisi **E. Bretschneider** hisoblanadi. U Fa-Anning birinchi elchixonasi haqidagi ma'lumotlarni berib o'tgan. Uning so'zlariga ko'ra, Fa-An Amir Temur elchisi hamrohligida katta elchixonaga boshchilik qilib, 1395-yilda Samarqandga kelgan. U yerda uni Amir Temurning yuqori lavozimli amaldorlari kutib olishgan, ular unga davlat tuzilishi haqida ma'lumot berishgan va uni mahalliy diqqatga sazovor joylar bilan tanishtirishgan. Xitoy elchisi Tabriz, Isfahon, Sheroz, Hirot va boshqa shaharlarga tashrif buyurgan.

Yana bir olim **Sharafad-Din Alining** xabarlariga ko'ra, Amir Temur Fa-An elchixonasini faqat 1397-yil oxirida, Sirdaryo bo'yida qishlagan paytida kutib olgan. Ushbu muallifning so'zlariga ko'ra, elchixona qirollik ne'matlari va sovg'alari bilan taqdirlangan, ammo keyin majburan hibsga olingan va faqat Amir Temur vafotidan keyin Xitoyga qaytishga ruxsat etilgan.

1387-yildan 1397-yilgacha bo'lgan o'n yillik davrda munosabatlar asosan do'stona va savdo-sotiqqa yo'naltirilgan edi. Xitoy imperatori Chju Yuan Chjan (Xunu) Samarqandga o'z elchisi Fa-An bilan birga 15 ta sara ot va 2 ta tuya kabi hadyalarni ham yuborgan edi. O'z navbatida, Samarqand savdogarlari Xitoyning Pekin va Langshu shaharlarida 670 tagacha ot sotishgan va bu savdo yo'llari saltanat xazinasi uchun katta



Date: 7th July-2026



daromad manbai bo'lgan. Biroq yuqorida ta'kidlab o'tilgandek 1397-yilda munosabatlar keskin buzildi. Bunga Xitoy imperatorining maktubida Amir Temurni o'zining "toben" deb atashi sabab bo'ldi. Bunday haqoratni qabul qilmagan Sohibqiron Xitoy elchilari Fa-An va Chen Te-Venni hibsga oldi va ular faqatgina 1405-yilda, Amir Temurning vafotidan so'nggina ozod etilib, vatanlariga qaytdilar. Xitoy va Movarounnahr kabi boshqa davlatlar o'rtasidagi diplomatik va savdo aloqalari deyarli yo'q qilindi. O'sha davrdagi xitoy va musulmon manbalarida XIV asrning ikkinchi yarmida taxminan 20 yil davomida Xitoy va Movarounnahr o'rtasidagi savdo yoki elchixona aloqalari haqida hech qanday ma'lumot yo'q.

Yapon tadqiqotchisi **Xiroshi Vatanabening** so'zlariga ko'ra, 1387-yildan 1397-yilgacha Amir Temur Xitoyga 6 ta elchixona yuborgan, ulardan birinchisi Mavlon Hofiz boshchiligida, Xitoy imperatoriga sovg'a sifatida 15 ta ot va 2 ta tuya olib borgan. Bu davrda Xitoyga jami 800 ta ot yuborilgan. 1394-yilda Amir Temur Xitoyga yangi elchilarini yuboradi. U yerda 200 ta ot va Amir Temurning xitoycha tarjimasida nashr etilgan xabari bor edi.

Xulosa

Amir Temur bobomiz nafaqat buyuk sarkarda, balki mohir diplomat ham bo'lgan. U uzoqni o'ylab ish ko'ruvchi, mamlakat manfaatini har tomonlama o'ylagan holda qo'shni davlatlar bilan elchilik aloqalarini o'rnatgan. U asos solgan davlat XIV-XV asrlar bo'sag'asida Sharq va G'arb sivilizatsiyalari o'rtasidagi o'ziga xos iqtisodiy, madaniy va siyosiy „oltin ko'priq“ vazifasini o'tadi. Buyuk bobomizning ezgu amallari va uzoqni ko'ra bilish qobiliyatini bugun nafaqat biz, balki butun Yevropa xalqlari ham yuksak ehtirom bilan tan oladi. Bunga yorqin misol tariqasida, mustaqilligimizning dastlabki yillarida Fransiya Prezidenti Jak Shirak tomonidan Amir Temurning Karl VI ga yo'llagan maktublari nusxasining O'zbekiston xalqiga taqdim etilganini keltirishimiz mumkin. Bu voqea oradan asrlar o'tishiga qaramay bugungi kun diplomatiyasi uchun ma'naviy va siyosiy poydevor bo'lib xizmat qilishini anglatadi. Tarixiy maktublar — bu shunchaki qog'oz emas, balki ikki buyuk davlat, ikki buyuk sivilizatsiya o'rtasidagi do'stlik va o'zaro ishonch ramzi hisoblanadi.

Xulosa o'rnida aytish joizki, bugungi kunda dunyoning ko'plab davlatlari nafaqat Sohibqironning harbiy san'ati va murakkab jang usullaridan namuna olmoqdalar, balki uning xalqaro aloqalar borasidagi noyob tajribasini ham chuqur o'rganmoqdalar. Bobomizning „Kuch-adolatdadur“ degan ulug'vor tamoyili bugungi zamonaviy dunyoda ham tinchlik va barqarorlikning asosiy kafolati bo'lib qolmoqda. Amir Temur merosi faqatgina o'tmish xotirasi emas, balki kelajak taraqqiyoti uchun xizmat qiladigan tirik darslikdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Arslonzoda R. A. Amir Temur Yevropalik zamondoshlar nigohida: sohibqiron tarixiga oid yevropa tillaridagi manbalar. — FarDU. Amir Temur jahon tarixida nomli II Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari.
2. Temur va Ulug'bek davri tarixi. — Toshkent: 1996. 9-b.

Date: 7th July-2026

3. Амир Темур в мировой истории. (Организация Объединенных Наций по вопросам образования, науки и культуры). — Париж: ЮНЕСКО, 1996.
4. Ибн Арабшох. История Амира Темура («Аджаиб ал-макдур фи тарих-и Таймур» / «Чудеса судьбы истории Темура»). Сокращённый перевод с узбекского языка Х. Н. Бабабекова. — Ташкент: Институт истории народов Средней Азии имени Махпират, 2005.
5. Муқимов Зиёдулла. Амир Темур тузуклари. — Самарқанд: «СамДУ нашриёти», 2008. 131-б.
6. Омонullo Бўриев. Темурийлар даври ёзма манбаларда Марказий Оsoё. — Тошкент: «Ўзбекистон», 1997. 167 б.
7. Хилда Хукхэм. Властитель семи созвездий (К 660-летию со дня рождения Амира Тимура). — Ташкент: Издательство «Адолат», 1995.
8. Ю. Ўғуз. Амир Темур (Тарихий роман). У. Қўчқор таржимаси. — Тошкент: 2018.
9. Amir Temur haqida hikoyalar / To'plovchi va nashrga tayyorlovchi: T. Hayit. — Toshkent: «O'zbekiston» nashriyoti, 2009.

